

KREDIT-MODUL TIZIMIDA MUSTAQIL ISH TURLARINI ME'YORLASHTIRISH

Nosirova Dilnoza Toir qizi JDPI o'qituvchisi

Amriyev Suhrob Orifjon o'g'li JDPI talabasi

Аннотация

Ushbu maqolada kredit-modul tizimi, uning ahamiyati, kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ishining ahamiyati, talabaning mustaqil ishi, o'qituvchi rahbarligidagi talabaning mustaqil ishi, talabalarining bitiruv malakaviy ishi, kurs ishilariga ajratilgan soatlar vaqt me'yorlarining mazmuni ilmiy-metodik jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Kredit-modul tizimi, mustaqil ta'lim, mustaqil ish, magistrlik dissertatsiyasi, bitiruv malakaviy ishi, kurs ishi, masafaviy ta'lim, o'qituvchi rahbarligidagi talabaning mustaqil ish.

Аннотация

В данной статье кредитно-модульная система, ее значение, значение самостоятельной работы студентов в кредитно-модульной системе, самостоятельная работа студентов, самостоятельная работа студентов под руководством преподавателей, выпускная работа студентов, содержание нормы времени на курсовую работу приведены.

Ключевые слова: кредитно-модульная система, самостоятельная работа, самостоятельная работа, магистерская диссертация, дипломная работа, курсовая работа, дистанционное обучение, самостоятельная работа студента под руководством преподавателя.

Annotation

In this article, the credit-module system, its importance, the importance of independent work of students in the credit-module system, independent work of students, independent work of students under the guidance of teachers, graduate work of students, the content of time norms for course work given.

Keywords: credit-module system, independent study, independent work, master's dissertation, graduate work, course work, distance learning, independent work of the student under the guidance of a teacher.

Ta'lim tizimini samaradorligini o'qituvchi saviyasi, talaba ehtiyoji, o'quv adabiyotlari mazmuni hamda mustaqil ta'limni shakllantirishga qaratilgan infratuzilma bevosita ta'minlab beradi. demak ilg'or kadrlarni tayyorlash, ularni mehnat bozori talablariga muvofiq raqobatdoshligini oshirish, ijodiy fikrlaydigan mutaxassislarni etishtirish o'quv dargohlarida yo'lga qo'yilgan ta'lim berish jarayoni bilan chambarchas bog'liq.

Davlatimiz rahbari tomonidan 2019-yilning 8-oktabridagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni imzolandi. Ushbu muhim dasturilamal hujjatda “...oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o‘tkazish” masalalari vazifa qilib qo‘yildi.

Kredit-modul tizimi zamonaviy ta'limning eng takomillashgan shakli sanaladi.

Kredit-modul tizimiga ko'ra o'quv mashg'ulotlari shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalari va talabning mustaqil o'qib o'rganishiga asoslanadi.

Kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ish turlarining hajmi 50-60% gacha oshadi, amaldagi ta'lim tizimida bu ko'rsatkich deyarli 40% ni tashkil etadi. SHu sababli, mustaqil ta'limga etarlicha e'tiborni qaratmasdan, uning uslubiy turlarini shakllantirmasdan kredit-modul tizimini to'laqonli tatbiq qilib bo'lmaydi.

Amaldagi ta’lim tizimiga nisbatan oladigan bo’lsak o’qituvchi rahbarligidagi mustaqil ish turlarini me’yorlangan va me’yorlanmagan turlarga ajratish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2018 yil 10-sentyabrdagi 20-2018-sonli buyrug‘iga ilova qilingan “Oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarining o‘quv yuklamasi hajmini hisoblashning vaqt me’yorlari”da quyidagi o‘qituvchi rahbarligidagi talabaning mustaqil ish (O‘RTMI) turlari me’yorlab qo‘yilgan:

- **3-ish turi:** Kurs ishlari va kurs loyihalariga rahbarlik qilish va ular bo‘yicha maslahatlar berish; bitta KI uchun 2 soat va KL uchun 3 soat ajratilgan. SHuningdek, bitta professor-o‘qituvchi bir semestr davomida 50 tagacha rahbarlik qilishi va maslahat berishi mumkin.

- **6-ish turi:** Namunaviy o‘quv dasturlarida ko‘zda tutilgan nazorat, hisoblash va hisob-grafik ishlarini tekshirish, maslahatlar berish, taqriz yozish va qabul qilish; bitta topshiriq uchun 0,3 soat, biroq, bitta fanga ko‘pi bilan 1 soatgacha vaqt ajratilgan. Bitta professor-o‘qituvchi ko‘pi bilan 3 tagacha akademik guruh birlashtirilishi mumkin.

- **8-ish turi:** Bakalavriat ta’lim yo‘nalishi talabalarini amaliyotlariga rahbarlik qilish, ularning hisobotlarini tekshirish va baholash. Malakaviy amaliyot o‘tayotgan har bir talaba uchun bir ish kuniga – 0,5 soat belgilangan. Bunda 1 akademik guruh uchun bir ish kuniga – 6 soat, ishlab chiqarish va pedagogik amaliyotga rahbarlik qilishga 1 akademik guruh uchun ta’lim muassasasi joylashgan hududda kuniga – 3 soat, hududdan tashqarida -6 soat etib belgilangan. Individual holda o‘tkaziladigan amaliyotlarda butun amaliyot davriga bir talaba uchun – 2 soat ajratilgan. Ushbu ish turi bo‘yicha yuklama hajmi professor-o‘qituvchining o‘quv ishlari yuklamasining 20% idan oshmasligi ham belgilab qo‘yilgan.

- **9-ish turi:** Bakalavriat ta’lim yo‘nalishi talabalarining bitiruv malakaviy ishiga rahbarlik qilish, xulosalar yozish; bir o‘quv yiliga har bir talaba uchun 25 soat, texnik yo‘nalishlarda esa – 30 soat etib belgilangan. Bunda bir o‘quv yilida bitta professor-o‘qituvchiga 7 nafargacha talaba birlashtiriladi.

- **11-ish turi:** Magistratura talabalarining ilmiy-pedagogik faoliyati va amaliyotiga rahbarlik qilish bir o‘quv yiliga bitta talaba uchun – 50 soat belgilangan. Bunda professor yoki fan doktori – 5 nafargacha, dotsent, fan nomzodi va mutaxassis – 3 nafargacha talabaga rahbarlik qilishi mumkin.
- **12-ish turi:** Magistratura talabasining magistrlik dissertatsiyasi va ilmiy-tadqiqot ishiga rahbarlik (ilmiy maslahatchilik) qilish uchun bir o‘quv yiliga bitta talaba uchun – 50 soat belgilangan. Bunda professor yoki fan doktori – 5 nafargacha, dotsent, fan nomzodi va mutaxassis – 3 nafargacha talabaning magistrlik dissertatsiyasi va stajirovkasiga rahbarlik (ilmiy maslahatchilik) qilishi mumkin.
- **14-ish turi:** Oliy ta’lim muassasalaridagi doktorant va mustaqil izlanuvchiga ilmiy maslahatchilik qilish. Bunda bir nafar doktorant uchun bir o‘quv yiliga – 100 soat, bir nafar mustaqil izlanuvchi uchun bir o‘quv yiliga – 50 soat belgilangan. Professor, fan doktori, dotsent, fan nomzodi o‘zi ishlayotgan oliy ta’lim muassasasida 3 nafargacha doktorant va mustaqil izlanuvchiga ilmiy maslahatchilik qilishi mumkin.

Yuqorida keltirib o‘tilgan O‘RTMI turlaridan masala yechish, referat yozish, kollokvium, esse, taqdimot, keys-stadi, ish o‘yinlari, glossariy, guruh loyihasi va boshqalar uchun vaqt me’yorlari ko‘zda tutilmagan. Chunki, ular bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar va tavsiyalar ishlab chiqiladi va maslahatlarni auditoriya mashg‘ulotlarida (ma’ruza, amaliy, seminar, laboratoriya) amalga oshirish mumkin.

Talabalarining fan to‘garaklarida, tanlovlarda, fan olimpiadalarida ishtirok etishi, ilmiy anjumanlarda ma’ruza qilishi, ilmiy tezis va maqolalar chop etishi kabi yuklamalarga ham vaqt me’yorlari ko‘zda tutilmagan, ularni bajarish “Oliy ta’lim muassasasi professor- o‘qituvchilarining o‘quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va “ustoz-shogird” ish turlarida ko‘zda tutilgan.

Talabalar tomonidan masofaviy ta’limda amalga oshirilishi mumkin

bo‘lgan Link, Chart, Q/A, Review, SWOT, Interview, Google Apps, Dayjest, Report kabi o‘qituvchi rahbarligidagi talabaning mustaqil ish turlari uchun maslahatlarni

kontakt soatlari (auditoriya mashg‘ulotlari) uchun ajratilgan vaqt hisobidan amalga oshirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, ta’limning kredit-modul tizimi barcha ta’lim shakllari nazoratini (auditoriya va auditoriyadan tashqari) o‘z ichiga olganligi, ta’lim jarayonida o‘qilgan soatlar miqdorini emas, balki erishilgan natijani ko‘rsatib beruvchi o‘lchov birligi hisoblanishi sababli ham ta’lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga molikdir.

Kredit-modul tizimini joriy qilinishini o‘rganish, tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, uning turli dunyo mamlakatlarida o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlari mavjud. Kredit-modul tizimining maqsadga muvofiqligi va samaradorligi ko‘pgina dunyo mamlakatlarining ta’lim sistemasida keng tarqalganligida ko‘rinmoqda, chunki, ta’lim dasturlari yo‘nalishlarining taraqqiy etishi talabalarni bilimni mustaqil o‘zlashtirish va mustaqil ishi ijodiy faoliyat darajasini oshirishga imkoniyat yaratadi, demak, ta’lim sifati to‘liq oshadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.2-bet.
2. Nosirova M., Xummamatova K., Nosirova D. Kredit-modul tizimining mohiyati va ahamiyati. Differensial tenglamalar va matematikaning turdosh bo‘limlari zamonaviy muammolari. Xalqaro ilmiy konferensiya.II. Farg‘ona-2020.
3. Nosirova M., Nosirova D. Modulli kredit tizimida talabalar mustaqil ishlarining ahamiyati. Ta’limga kompetensiyaviy yondashuv: muammo va yechimlar. Respublika onlayn ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami I. Andijon-2020.
4. Nosirova D.T., Pardaeva Z.O‘., Xummamatova K. The main forms of organization of independent work of students in the credit-module system. International Journal of

Progressive Sciences and Technologies (IJPSAT) Vol 23, №2(2020) November.
Impact factor 5.6

5. Nosirova D.T., Kamolova A, Qazibekov M. Duties Of Professor-Teachers In The Credit-Module System. The American Journal of social science and education innovatsion. Volume 2 Issue 11, 2020 Impact factor 5.525

